# PUDRAT SHARTNOMASI

22«11»2022 yil. 113-3-46-IB/2022-son

Sharof Rashidov tuman irrigatsiya bo'limi (keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi) nomidan jamiyat nizomi deb asosida faoliyat yurituvchi boshliq **L.K.Maxmudov** va "ORZU NAZAR" masuliyati cheklangan jamiyati (keyingi o'rinlarda "Pudratchi" deb yuritiladi) nomidan jamiyat nizomi asosida faoliyat yurituvchi raxbari **O.B.Narzullaev** mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

## 1. Shartnoma predmeti.

1.1. Pudratchi o'z zimmasiga buyurtmachining topshirig'iga ko'ra o'z materiallari yoki buyurtmachining materiallaridan foydalanib: mazkur shartnomaning 1.2.-bandida ko'rsatilgan ishlarni bajarish va uning natijasini buyurtmachiga topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa ishlarning natijasini qabul qilib olish va buning uchun haq to'lash majburiyatini oladi.

1.2. Pudratchi keyingi o'rinlarda "Ishlar" deb ataladigan quyidagi ishlarni bajarish majburiyatini oladi:

**Sharof Rashidov tuman irrigatsiya bo'limi hisobidagi X-1 kanalini, R-1 kanalini va UMK kanalini mexanizim yordamida tozalash xamda buzulgan joylarni joriy ta'mirlash.**

Ko'rsatilgan ishlarni bajarish uchun buyurtmachi 2022 yil 21 noyabrga qadar pudratchiga zaruriy loyiha-smeta xujjatlari, texnik shartlar taqdim etish majburiyatini oladi.

Pudratchi ishlarni o'zining materiallaridan, o'zining asbob-uskunasida va o'zining instrumentlari bilan bajaradi.

Ishlarni bajarish muddati:

2022 yil 21 noyabrdan

2022 yil 09 dekabrgacha.

Pudratchi ishlarni oldin bajarish huquqiga ega .

1.4.1. Ishlar buyurtmachi yoki uning vakolatli vakili tomonidan ishlarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangandan keyin bajarilgan deb hisoblanadi.

## 2.Majburiyatlarning bajarilishi muddati.

2.1. Buyurtmachi, pudratchiga shartnoma qiymatining 30 % foiz miqdoridagi bunak tulovlarini shartnoma tuman g'aznachilik bo'limidan ro'yxatdan o'tgandan so'ng amalga oshiradi. Ishlarni qabul qilishda aniqlangan nuqson va kamchiliklarni bartaraf etish ishlari to'liq hajmda bajarilgandan so'ng

3(uch) bank kuni muddatidan kechiktirmasdan buyurtmachiga bajargan ishlar uchun hisob-kitobni amalga oshiradi.

2.2.Mazkur shartnoma taraflar uni imzolagan paytdan boshlab kuchga kiradi va 30 dekabr 2022 yilgacha amal qiladi.

**3.Taraflarning huquq va majburiyatlari.**

3.1. Pudratchining majburiyatlari:

3.1.1. Ishlarni lozim boʻlgan sifatda bajarish.

3.1.2. Ishlarni mazkur shartnomaning 1.4-bandida koʻrsatilgan muddatda bajarish.

3.1.3. Ob'ektga loyixaga binoan zarur bulgan materiallarni, konstruksiyalarni, butlovchi ashyolarni yetkazib berish va ularni qabul kilish, tushirish, taxlash hamda saqlashni amalga oshirishi;

3.1.4. Ushbu shartnoma buyicha ishlarni bajarish uchun jalb qilinadigan maxsus tashkilotlar bilan subpudrat shartnomalarini tuzgani tugʻrisida buyurtmachiga axborot berishi va u tomondan ishlarning bajarilishi yuzasidan nazoratni ta'minlashi;

3.1.5. Ishlarning natijasini buyurtmachiga topshirish.

3.1.6. Agar pudratchi ishlarni bajarish jarayonida shartnoma shartlaridan ishlarning sifatini yomonlashtirishga olib keladigan chetga chiqishga yoʻl qoʻygan boʻlsa, buyurtmachining talabiga binoan aniqlangan barcha kamchiliklarni 15(oʻn besh) kun ichida tekinga bartaraf etish.

3.2. Pudratchi quyidagi huquqlarga ega:

3.2.1. Buyurtmachi tomonidan mazkur shartnomaning 3-bandida koʻrsatilgan hak toʻlash majburiyati bajarilmaganda, pudratchi ishlarning natijasini ushlab turish huquqiga ega.

3.3. Buyurtmachining majburiyatlari:

3.3.1. Pudratchidan ishlar tugallanganligi haqida xabarnoma olgandan keyin 1(bir) kun ichida yoki mazkur shartnomaning 1.4-bandida koʻrsatilgan muddat tugaganda, ishlarning natijasini koʻrib chiqish va qabul qilish, ishlarning natijasini yomonlashtiradigan shartnomadan chetga chiqishlar yoki ishlardagi boshqa kamchiliklar aniqlanganda, bular haqida pudratchiga darhol xabar berish.

3.3.2. Ishlarning natijalarini qabul qilgan paytdan mazkur shartnomaning 3-bandida koʻrsatilgan hisoblashishlar tartibi boʻyicha ishlar uchun haq toʻlash.

3.4. Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega:

3.4.1. Har qanday vaqtda pudratchining faoliyatiga aralashmagan holda u tomonidan bajariladigan ishlarning borish jarayoni va sifatini tekshirish.

3.4.2. Buyurtmachi ish natijasi o'ziga topshirilgunga qadar istagan vaqtda shartnomadan voz kechib, belgilangan bahoning buyurtmachi shartnomani bajarishdan voz kechganligi to'g'risidagi xabarnoma olingunga qadar bajarilgan ishlar qismiga mutonosib qismini pudratchiga to'lash. Bunda burtmachi pudratchiga shartnomaning bekor qilinishi tufayli yetkazilgan zararni bajarilgan ishning bahosi bilan hamma ish uchun belgilangan baho o'rtasidagi farq doirasida to'lashi ham shart.

**4.Shartnomaning bahosi va hisoblashishlar tartibi.**

4.1. Mazkur shartnomaning bahosi 88 952 000 (sakson sakkiz million to'qqiz yuz elik ikki ming) so'mni tashkil qiladi.

4.2.Shartnomaning 1.4.1-bandi bo'yicha bajarilgan ishlarni qabul qilish va topshirish to'g'risidagi moliyaviy xujjatlari (Forma-2, Forma-3, hisob-faktura va bajarilgan ishlarning rangli rasmlari taqdim etilganda) imzolangandan to'liq taqdim etilganidan so'ng tulovning qolgan 70(yetmish) foizi uzil-kesil hisob-kitob o'tkazish yuli bilan amalga oshiriladi.

4.3.Buyurtmachi tomonidan pudratchiga shartnoma bahosini to'lash bajaruvchining mazkur shartnomada ko'rsatilgan hisob-kitob hisobvarag'iga pul mablag'larini ko'chirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

**5.Taraflarning javobgarligi.**

5.1. Pudratchi mazkur shartnomaning 1.4-bandida ko'rsatilgan ishlarni bajarish muddatini buzganligi uchun buyurtmachiga shartnoma summasidan 0,4 foiz miqdorda jarima va har bir kechiktirilgan kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar bahosining 50 foizdan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

5.2. Bajarilgan ishlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun buyurtmachi pudratchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

5.3. Mazkur shartnomada ko'zda tutilmagan taraflarning javobgarlik choralari O'zbekiston Respublikasi hududida amal qiluvchi fuqarolik qonunchiligi me'yorlariga muvofiq qo'llanadi.

5.4. Neustoyka to'lash taraflarning ular oldida turgan majburiyatlarini bajarishdan yoki shartlarning buzishini bartaraf etishdan ozod etmaydi.

**6.Fors-major xolatlari.**

6.1. Hech bir taraf ikkinchi taraf oldida o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra va yengib bo‘lmas kuch mavjud bo‘lgan taqdirda ushbu shartnomada ko‘rsatilgan majburiyatlari bo‘yicha javobgar emas. (Urush e’lon qilinishi yoki boshlanishi, fuqarolar tartibsizligi, epidemiya, embargo, yer qimirlashi, suv toshqini, yong‘in va boshqa tabiiy ofatlar shular jumlasidandir.)

6.2. Bartaraf kilib bulmaydigan kuchlarning mavjudligi yoki amalda davom etayotganligini O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining shunga oid qarorlari yoki boshqa vakolatli organlar tomonidan berilgan guvoxnomalari uning yetarli darajadagi tasdig‘i bo‘lib hisoblanadi.

6.3. O‘z majburiyatini bajarmagan taraf shartnoma buyicha majburiyatni bajarishga uning ta’sir ko‘rsatishi yoki monelik qilishi to‘g‘risida boshqa tarafga imkon qadar tezda xabar berishi lozim.

**7.Nizolarni hal etish tartibi.**

7.1. Mazkur shartnomani bajarishda yuzaga keladigan nizolar va kelishmovchiliklar taraflar o‘rtasida imkon qadar muzokaralar yo‘li bilan hal etiladi.

7.2. Nizolarni taraflarning muzokaralari yo‘li bilan hal etish imkoni bo‘lmagan taqdirda, taraflar kelishmovchiliklarni bartaraf etish borasida qonunchilikda ko‘zda tutilgan sudgacha bo‘lgan jarayonlarni amalga oshirilganlaridan so‘ng ularni Jizzax tumanlararo iqtisodiy sudida ko‘rib chiqishga topshiradilar.

**8. Shartnomaga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish tartibi.**

8.1. Ushbu shartnomaga har qanday kiritilgan qo‘shimcha va o‘zgartishlar yozma ravishda rasmiylashtirilib, har ikkala taraf imzolagan hollardagina haqiqiy kuchga ega bo‘ladi.

8.2. Shartnomani muddatidan oldin bekor kilish taraflarning kelishuvi buyicha yoxud O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Fuqarolik kodeksi va qonun xujjatlarida nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha, yetkazilgan zararlarni qoplash bilan amalga oshirilishi mumkin.

8.3. Buyurtmachi quyidagi hollarda shartnomani bekor kilishga haqli:

-Pudratchining aybi bilan ishlarning borishini sustkashlik bilan tuxtatib turilishi, ya’ni ushbu shartnomadagi ishlarning tamom bo‘lish muddati bir oydan ko‘pga oshib ketganda;

-Pudratchining shartnoma shartlarini buzishi natijasida loyihada ko‘rsatilgan ishlarning sifati pasayganda.

**9.Korrupsiyaga qarshi kelishuv.**

9.1.Shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishda tomonlar korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etilishini ta’minlaydi, ya’ni ular, ularning xodimlari, kafillangan shaxslar, benifitsiyalari va shartnomani amalga oshirishdagi xamkorlari, pudratchilari tomonidan bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilish moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim.Tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.

9.2.Tomonlar korrupsiyaga qarshi qoidalar buzulganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganida darxol yozma ravishda(elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni(78 150 26 03) orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi.Bunda tomonlar yuzaga kelgan xolatda oydinlik kiritish maqsadida yozma izox talab qilish xuqiqiga ega va murojaatini olgan tomon 10(o‘n) ish kuni mobaynida tushintirish berish yoki o‘z fikirini bildirishi mumkin.

9.3.Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korrupsion xavf-xatar bartaraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralar korrupsion holatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish xuquqiga ega yoki uning ijrosini to‘xtatib qo‘yishi mumkin.

Ushbu bobda ko‘rsatilgan asoslar bo‘yicha shartnomani bir tomonlama bekor qilish talab qilgan tomonga yetkazilgan zararlarni qoplash qonunchilikda ko‘rsatilgan tartibda amalga oshiriladi, ushbu bobning majburiyatlarini buzgan tomon esa shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishi oqibatida ko‘rilgan zararlar qoplanishi talab qilinishiga xaqli emas.

**10.Taraflarning manzillari va bank rekvizitlari.**

Buyurtmachi: **Sharof.Rashidov TIB**
STIR: **305 082 274**

OKONX **1613**
Yuridik manzili: Sharof Rashidov tumani Uch tepa MFY, Uch tepa daxasi

Pudratchi: **“ORZU NAZAR” MCHJ**
STIR: **308 022 045**

OKONX 41202
Yuridik manzili: Jizzax shaxar, X.Olimjon MFY,U.Olimov ko‘chasi 24uy

| | |
|---|---|
| Telefon/faks 99 566 60 23 | Telefon/faks: 99 079-96-00 |
| Hisob-kitob hisobvarag'i: **100022860082127042402170001** | Hisob-kitob hisobvarag'i: **2020 8000 6053 1932 1001** |
| Banki: Markaziy bank BBB Toshkent shaxri. | Banki: "TRASTBANK" XAB Jizzax filiali |
| MFO 00014 | MFO 01166 |
| | Pudratchi:____________O.B.Narzullaev |

| | | |
|---|---|---|
| | Hujjat **elektron raqamli imzo** orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun **QR Code** ni skanerlang. | |
| | Imzolovchi F.I.SH. | LAPAS MAXMUDOV KULDASHEVICH |
| | Imzolangan sana | 21.11.2022 12:00 |
| | Hujjat kodi | **BW2502231571** |
| | Hulosa kodi | **FJ3223517073** |

Смета хужжатлардан 1 нусха олдим.

0.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: FJ3223517073

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY

# XULOSA

FJ3223517073

1. Loyihaning turi : Shartnoma

2. Loyihaning nomi: Sharof Rashidov tuman irrigatsiya bo‘limi hisobidagi X-1, R-1 va UMK kanallarini mexanizm yordamida tozalash hamda buzilgan joylarini joriy ta‘mirlash haqida pudrat shartnomasi loyihasi.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot: Sh.Rashidov tuman irrigasiya bo‘limi tomonidan 21.11.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Sharof Rashidov tumani yuridik markazi bosh yuristkonsulti:**

**B.S.PAKIROV**

21.11.2022

## Протокол закупочной комиссии по отбору наилучшего предложения лот № 185390 на приобретение Sh.Rashidov tuman irrigatsiya bo'limi hisobidagi "X-1" kanalini,"R-1" kanalini va "UMK" kanalini mexanizim yordamida tozalash xamda buzulgan joylarni joriy ta'mirlash

Способ проведения электронный

Дата 15.11.2022

Время рассмотрения 15.11.2022 18:35

Закупочная комиссия SH.Rashidov tuman Irrigatsiya bolimi, (Далее – Комиссия) в составе:

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Председатель комиссии** | MAXMUDOV LAPAS KULDASHEVICH | Boshliq | SH.Rashidov TIB |
| **Секретарь комиссии** | DAVUROV FARXOD IMAMKULOVICH | Таъмирлашни ташкил қилиш шўъбаси ходими | Ш.Рашидов ТИБ |
| **Член комиссии** | BOYBEKOV ABDURASHIT ABDURAZAQOVICH | Бош хисобчи | Ш.Рашидов ТИБ |
| **Член комиссии** | ESIRGAPOV RAIMQUL XAZRATQULOVICH | Бошлиқ ўринбосари | Ш.Рашидов ТИБ |
| **Член комиссии** | NORBUTAYEV SUVANKUL ISMAILOVICH | Бош гидротехник | Ш.Рашидов ТИБ |
| **Член комиссии** | KODIRKULOV G'ULOM ABDIMANNON O'G'LI | Бош гидрометр | Ш.Рашидов ТИБ |

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 15.11.2022 года № лота 185390.
Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 90.00 / Весовой коэф. ценовой части: 10.00)

Мин. балл: 50

Предмет закупки:

| | |
|---|---|
| **Наименование товара (работы, услуги)** | **Услуги по текущему ремонту сооружений** |
| Подробное описание | Сифатли хизмат курсатиш |
| Количество товара | 1.00 |
| Единица измерения | |
| Цена товара (услуги) за единицу | 90 685 939.00 |
| Стартовая сумма | 90 685 939.00 |
| Валюта | UZS |

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Солик ва бошка идоралардан карздорлиги йуклиги тугрсида малумот

Тип: Текстовое значение

Описание: Онлайн солик малумоти

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| SHUXRAT- | 25 | Солик ва бошка | 20 | Экспертная | | |

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| NODIRBEK XK | | идоралардан карздорлиги йуклиги тугрсида малумот | | | | |
| GIDROSTROY YUG MCHJ | 25 | Илова килинди | 22 | Экспертная | | |
| OOO ORZU NAZAR | 25 | Маълумот илова килинди. | 20 | Экспертная | | |

Критерий №2 Махсус техникалар малумоти

Тип: Текстовое значение

Описание: Техникалар техпаспорти

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| SHUXRAT-NODIRBEK XK | 25 | БАЛАНСДА Махсус техникалар малумоти | 21 | Экспертная | | |
| GIDROSTROY YUG MCHJ | 25 | Илова килинди | 18 | Экспертная | | |
| OOO ORZU NAZAR | 25 | Маълумот илов килинди. | 20 | Экспертная | | |

Критерий №3 Танловда иштирок этадиган корхонанинг молиявий холати тугрисида малумот

Тип: Текстовое значение

Описание: Баланс.Молиявий натижа

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| SHUXRAT-NODIRBEK XK | 25 | Танловда иштирок этадиган корхонанинг молиявий холати тугрисида малумоти | 20 | Экспертная | | |
| GIDROSTROY YUG MCHJ | 25 | Илова килинди | 18 | Экспертная | | |
| OOO ORZU NAZAR | 25 | Маълумот илова килинди | 24 | Экспертная | | |

Критерий №4 Мутахассислар малумоти

Тип: Текстовое значение

Описание: Ишчилар малумоти

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **SHUXRAT-NODIRBEK XK** | 25 | Мутахассислар малумоти | 21 | Экспертная | | |
| **GIDROSTROY YUG MCHJ** | 25 | Илова килинди | 18 | Экспертная | | |
| **OOO ORZU NAZAR** | 25 | Корхонада 20 та доимий ва 15 та мавсумий ишчи ходимлар мавжуд | 20 | Экспертная | | |

Оценка участников финансовой части составила:

| Наименование участника | Стартовая сумма | Предлагаемая сумма | Сумма с учетом конвертации (UZS) | Применение преференции | Общее значение (UZS) | Дата предложения | Оценка стоимости (балл) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **OOO ORZU NAZAR** | 90 685 939.00 | 88 952 000.00 UZS | 88 952 000.00 | 00.00 | 88 952 000.00 | 15.11.2022 16:36:10 | 8.86516 |
| **SHUXRAT-NODIRBEK XK** | 90 685 939.00 | 90 085 939.00 UZS | 90 085 939.00 | 00.00 | 90 085 939.00 | 15.11.2022 12:29:30 | 8.75357 |
| **GIDROSTROY YUG MCHJ** | 90 685 939.00 | 78 857 338.00 UZS | 78 857 338.00 | 00.00 | 78 857 338.00 | 15.11.2022 13:16:37 | 10 |

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

| Наименование участника | Общий балл по технической части | Общий балл по финансовой части | Итоговый балл |
|---|---|---|---|
| **OOO ORZU NAZAR** | 75.6 | 8.86516 | 84.46516 |
| **SHUXRAT-NODIRBEK XK** | 73.8 | 8.75357 | 82.55357 |
| **GIDROSTROY YUG MCHJ** | 68.4 | 10 | 78.4 |

Закупочная комиссия по отбору наилучшего предложения лот № 185390 от 15.11.2022 года на приобретение Sh.Rashidov tuman irrigatsiya boʻlimi hisobidagi "X-1" kanalini,"R-1" kanalini va "UMK" kanalini mexanizim yordamida tozalash xamda buzulgan joylarni joriy taʼmirlash определила победителем:

OOO ORZU NAZAR
308022045

и резервный исполнитель: SHUXRAT-NODIRBEK XK (205114884)

Проголосовали

| Комиссия | Ф.И.О. | Голосование | Комментарии |
|---|---|---|---|
| **Председатель комиссии** | MAXMUDOV LAPAS KULDASHEVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | BOYBEKOV ABDURASHIT ABDURAZAQOVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | ESIRGAPOV RAIMQUL XAZRATQULOVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | NORBUTAYEV SUVANKUL ISMAILOVICH | Согласен | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Член комиссии** | KODIRKULOV G'ULOM ABDIMANNON O'G'LI | Согласен | |

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП